

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA ULARNING MUZMUN-MOHIYATLARI.

Abdurasulova Sabrina Sanjarovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Po'latov Bahodir Abdunazarovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning yangi taxriri 65 foizga yangilangan va ancha "to'lishgan" bosh qomusi 2023-yilning 1-mayidan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi va bularning natijasida konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratiya, konstitutsiyaviy islohotlar, O'zbekiston - huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, inson huquqlari va burchlari.

Konstitutsiyada ro'y bergan eng muhim o'zgarishlar haqida qisqacha keltirib o'tadigan bo'sak. O'zbekiston - huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deya e'tirof etilgan bo'lib unga ko'ra avallgi konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston - suveren demokratik respublika" jumlasini quyidagicha o'zgartirildi:

O'zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli - davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. (Konstitutsiya normalatiga rasmiy sharhlar hozircha mavjud emasligi sababli undagi norma va tushunchalarga umumqabul qilingan doirada, mustaqil izoh berib o'tilmoqda).

Suveren davlat - o'z hududida to'la-to'kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo'lishdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o'z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta'minlanishini ko'zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustida quriladi, davlat hizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Dunyoviy davlatda davlat va din

bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy e'tiqodidan qatiynazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan 1-moddasidagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas deb belgilandi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, bu norma - O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi 15-moddaga quyidagicha qilib qo'shildi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi. Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

Yuqoridagilardan tashqari konstitutsiyaga bosha ko'plab normalar ham qo'shilgan, jumladan:

O'zbekistonda o'lim jazosi bekor qilindi.

Agar shaxsning o'zi aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri malumotlarning tuzalishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Inson huquqlari 3,5 barobarga oshayotgani to'g'ri. Davlat organlarining asosiy maqsadi sifatida inson huquqlari va erkinligini taminlash, deb belgilab qo'yildi. Yani har qanday holatda davlat organlari va mansabdor shaxslar faqat fuqarolarning manfaati uchun xizmat qiladi. Bu prinsip har bir meyorda o'z aksini topyabti. Yana bir masala: qo'llangan huquqiy ta'sir chorasi mutanosib va yetarli bo'lishi kerakligi belgilandi va bu barcha qonun hujjatlariga tegishli bo'ladi. Bundan tashqari, qonunda belgilanmagan tarzda majburuyatlar yuklatilishi mumkin emas. Ba'zi bir holatlarda shunday majburiyatlar bo'layotganini ko'rishimiz mumkin edi. Endilikda bunday holatlarga konstitutsiyaviy kafolat berilayabti.

Sudlanganlik masalasi ham bor. Bu masala nafaqat shaxsning o'ziga, balki yaqin qarindoshlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xatto yaqin qarindoshi sudlanganligi sabab mehnat shartnomasi bekor qilinishigacha olib kelgan holatlar ham bo'lgan. Shuning uchun ham endi konstitutsiyada sudlanganlik shaxsga va uning yaqin qarindoshlariga ta'sir qilmasligi belgilandi. Shuni ta'kidlab o'tosh kerakki inson kafolatlari belgilanganligi, avtomatik tarzda davlatga majburlov yuklayabti. Jinoyat ishlari yurituvchi bo'yicha ko'p meyyorlar aks ettirilayabti. Masalan aybsizlik prezumpsiyasi konstitutsiyada bor edi endilikda xalaro standartlar bo'yicha bor bo'lgan barcha kafolatlar bilan aks etyabti.

Eslatib o'tamiz "yangi konstitutsiya" 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan bo'lsa ham rasmiy xabarlariga ko'ra "konstitutsiya qabul qilingan kun" sifatida bundan keyin ham 1992-yil 8-dekabr sanasi e'tirof etiladi va 8-dekabr bayram sanasi o'zgarmaydi.

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam fuqarolarning ham ko'plab burchlari mavjud bo'lib bular sirasiga konstitutsiyadagi qonunlarga amal qilish, madaniy me'ros va tarixiy obyektlarni hurmat qilish, tabiatni asrash, Vatanni himoya qilishlari kabi burchalari bordir. Fuqarolar konstitutsiyaning mazmun mohiyatlarini anglaganlari sayin o'zlarining haq-huquqlarini himoya qila olishida va vatanimiz oldidagi burchlarni to'la to'kis ado etishida katta yordam berishiga ishonchim komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. T:1992
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri : 2023
1. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>.
2. <https://kun.uz/69737303>
3. <http://lex.uz/>
4. <http://cunitution.uz>